

Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar

(o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlik, hamjihatlik, mas'uliyatlik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlahs va ijodkorlik qobiliyatları)

SAVOLLAR TO'PLAMI

1. Siz kasalliklar bilan qattiq zararlangan ekin yoki mevali daraxtlarni ko'rganiningizda Sizda birinchi bo'lib qanday fikr paydo bo'ladi?
2. Dala madaniyati deganda nimani tushunasiz?
3. Gurkirab o'sib turgan paxta dalasini begona o'tlar bosib yotgan bo'lsa, dalani begona o'tlardan tozalagingiz keladimi?
4. Qishloq xo'jaligi ishlarida tartib-intizomlilik qanchalik darajada muhim deb hisoblaysiz?
5. Ekin dalasi suvgaga juda muhtoj bo'lib turganda, o'sha o'simlik o'rniда o'zingizni qo'ya olasizmi va Sizda qanday taassurot paydo bo'ladi?
6. Dehqonchilik ilmini o'rganishda qanday qobiliyat va imkoniyatlaringiz bor deb o'ylaysiz?
7. Tomorqangizda ishlab orttirgan tajribangiz universitetda o'qish davomida ast qotishi mumkinmi?
8. Ekinlar parvarishida ma'lum bir tadbir yoki ishni (masalan, sug'orish yoki o'g'itlash) bajarayotganingizda tavsiya qilingan usuldan tashqari boshqacha usulni afzal ko'rsangiz yoki o'ylab topsangiz, o'sha usulni sinab ko'ra olasizmi?
9. Qishloq xo'jaligi yoki dehqonchilik faoliyatida insonning ijodkorlik xususiyati qanchalik muhim?
10. Siz issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlarni afzal ko'rasizmi yoki ochiq dalada yetishtirilgan mahsulotlarnimi va nima uchun?
11. Issiqxonada dehqonchilik qilishning nima afzallik tomonlari bor?
12. Issiqxonada dehqonchilik qilishning nima kamchilik tomonlari bor?
13. Agrokimyo sohasida kimyo fanini chuqur bilish qanday imkoniyatlar yaratadi?
14. O'simliklarni himoya qilish sohasida qishloq xo'jaligi fanlari, ayniqsa entomologiya va fitopatologiya fanlarini chuqur egallash qanday ahamiyatga ega?
15. Ish faoliyatingiz davomida ekinlarni parvarishlash bilan bog'liq muammolarni yechishda qiyalsangiz birinchi bo'lib qanday ish tutasiz?
16. O'z-o'zini rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
17. O'z ustida ishlash nima? O'zini o'zi tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?
18. Qishloq xo'jaligida ekiladigan qaysi ekinlar suvni kam talab qiladi?
19. Kuzda yerni shudgor qilishning ahamiyati nimada? Nimaga shunday deb o'ylaysiz.
20. Go'nghi nimaga chiritilgan holda ishlatish zarur?
21. O'zbekistonda qaysi o'simliklar mevasini dorivor sifatida ishlatiladi?
22. Sizning yashash hududingizda qanday dorivor o'simliklar uchraydi. Ularni sotishni tashkil etish mumkinmi?
23. O'simliklarni yetishtirishda va uni himoya qilishda biologik usul degan atamani tushuntirib bering?
24. Agronomiya sohasida qanday biznesni tashkil qila olaman deb o'ylaysiz?
25. Oziq-ovqat xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
26. Mineral o'g'it, kimyoviy preparatlar qimmat, ularni o'rniغا qanday vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq?
27. Erta bahorda bozorga chiqarishga mos qanday ekinlarni siz yashayotgan hududda yetishtirgan ma'qul.
28. So'nggi yillarda suv tanqisligi juda sezilayapti. Uni qanday qilib salbiy oqibatini kamaytirsa bo'ladi?
29. Lalmi sharoitda sizningcha qaysi ekinlar foydali deb o'ylaysiz.

30. Tanlagan kasbiy sohangiz bo'yicha amaliy faoliyat yuritishda nimani asosiy deb hisoblaysiz? Javobingizni izohlang.
31. Agrokimyogar-agronomlar uchun o'g'itlashning hosilni oshirishda eng qulay qo'llash usuli?
32. O'simliklar himoyasida qaysi kasallik va zararkunanda eng ko'p zarar keltiradi deb hisoblaysiz?
33. Soha bo'yicha texnikumda o'qish davrida qanday yutuqlar erishgansiz?
34. Fermer xo'jaligi, ferma yoki shaxsiy tomorqa xo'jalicingiz bormi? Agar bo'lsa faoliyati va o'zingiz qo'shayotgan hissangiz qanday?
35. Mahalliy va mineral o'g'itlardan foydalanish tartibini izohlab bering?
36. Kompost nima va u qanday tayyorlanadi?
37. Chet elga eksport qilishda qaysi qishloq xo'jalik mahsulotlari iqtisodiy samarali hisoblanadi?
38. Mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri sotish yoki qayta ishlash ma'qulmi?
39. Ekologik toza mahsulot deganda nimani tushunasiz. Uni qanday yetishtiradi?
40. "To'qsonbosti" usuli - bu nima? Bu usulda yilning qaysi faslida qanday turdag'i ekinlar ekiladi.